

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ABDURAXMANOVA NARGIZA NUSRATULLAYEVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK OG‘ZAKI HAMDA YOZMA NUTQIDA
INSTRUKTIV DISKURS**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (Phd) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Abduraxmanova Nargiza Nusratullayevna

Ingliz va o‘zbek og‘zaki hamda yozma nutqida instruktiv diskurs 3

Abdurakhmanova Nargiza Nusratullaevna

Instructive discourse in oral and written speech in English and Uzbek 25

Абдурахманова Наргиза Нусратуллаевна

Инструктивный дискурс в устной и письменной речи на английском и узбекском языках..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 52

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ABDURAXMANOVA NARGIZA NUSRATULLAYEVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK OG‘ZAKI HAMDA YOZMA NUTQIDA
INSTRUKTIV DISKURS**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2092 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.adchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan..

Ilmiy rahbar:

Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Raximovna
filologiya fanlari doktori, professor

Najmiddinov Muhammadjon G‘ayratjon o‘g‘li
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “_____” _____soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-42-76; faks: 0(374)223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100 Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” _____kuni tarqatildi.
(2024-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

A.Dj.Atboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.d (PhD)

M.I.Umarxo‘jayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida bilimlarning diskursiv, kognitiv, tipologik, lingvokulturologik va pragmatik jihatlarini noyob sistema tarzida lingvistik namoyish etish muammolari til nazariyasi paradigmasida eng dolzarb va istiqbolli hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaralsa, eng kam o'rganilgan kognitiv-semiotik hodisalardan biri – instruktiv diskurs madaniyatning diskursiv kompleks shakllanishi sifatida uning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyat muloqotining turli jabhalarida namoyon bo'luvchi asosiy nutqlardan biri hamda jamiyat a'zolari uchun maksimal ahamiyatga ega bo'lgan, ularning hayotida muhim ko'rsatmalar sifatida gavdalanuvchi sohadir.

Instruksiyalar turli matnlarning formatiga bog'liq bo'lib, unda adresat va adresant o'rtasida kommunikativ aloqalar o'rnatilishi, shu asnoda ko'rsatma ma'lumotlarini uzatish va qabul qilish jarayoni dunyo tilshunosligida kuzatiladi. Instruktiv diskursning ahamiyati, asosan, uni turli maqsadlarda to'g'ri qabul qilish va anglab yetishdadir. Qabul qiluvchi instruktiv semantikani o'z ongida in'ikos etib, ushbu tushunchalarga rioya qilish jarayoni juda ahamiyatli hisoblanadi. Binobarin, instruktiv diskurs to'liq, mazmunli va realistik ko'rsatmalar orqali ifodalangan bo'lishi darkor. Instruktiv matnni diskurs orqali namoyon qilish matning har tomonlama tavsifi, uning xususiyatlarini aniqlashtirish hamda shakllantirish imkonini beradi. Instruktiv diskurs dori vositalarini farmatsevtika nutqi, maishiy xizmat jihozlarining qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi, taom tayyorlash retsepti va yo'riqnomasi, manzilga yo'nalish berish ko'rsatmalari va media matnlarda ifodalangan ko'rsatmalar kabi ijtimoiy sohalar, shuningdek, ilmiy sohalarida ilmiy matn ko'rsatmalari qo'llanishi kuzatilgan katta hajmdagi muhim masalalardan biridir.

Instruktiv diskurs nafaqat xorijiy tillarni o'rganuvchilar, balki o'z ona tilida muloqot qiluvchilar uchun ham g'oyat keng ma'nolar spektrini hosil qiluvchi nutq sifatida juda qiziqarli, ammo o'ta murakkab va zarur o'rganish obyektidir. Chunki "...davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish"¹ bugungi kunda tilshunoslik oldida turgan ustuvor vazifadir. Hozirgi kunga qadar instruktiv diskurs bo'yicha o'zbek tilshunosligida muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ushbu mavzu o'zbek va ingliz nutqi misolida yaxlit tizim shaklida qiyosiy aspektda o'rganilmaganligi ushbu muammoning bir-biriga qardosh bo'lmagan mazkur tillar doirasida chog'ishtirma tadqiq etilishi lozimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-son qarori, 2015-yil 12-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4732-son farmoni, 2016-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 19 maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori // <https://lex.uz/docs/5426736>

13- maydagi PF-4794-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi uzluksiz ta‘lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi 124-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqotimiz ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda diskurs va instruktiv diskurs bo‘yicha turli tillarda tadqiqot olib borilgan bo‘lib, ushbu sohaga salmoqli hissa qo‘shgan olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Biroq, eng samarali izlanishlar va yondashuvlar Yevropa tilshunosligining yirik vakillari G.Brown, G.Yule, A.Burns, H.Joyce, S.Gollin, G.Cook, M.Coulthard, N.Fairclough, J.Martin, M.Mc Carthy, J.Vehek, Yan Wu, Z.S.Harris²; rus tilshunosligida esa N.D.Arutyunova, V.S.Grigoryeva, T.A.Deyk, A.F.Zotov, V.I.Karasik, R.A.Karimova, A.Ye.Kibrik, V.V.Krasnix, Ye.S.Kubryakova, M.L.Makarov, O.L.Mixalyeva, L.Dj.Filips, M.V.Yorgensen, V.Ye.Chernyavskaya, R.Yakobson, Ye.Yu.Kondrashkina, G.P.Burova³ kabi olimlarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin.

²Brown G., G.Yule. *Discourse Analysis*. Cambridge: Cambridge University Press (Cambridge Textbooks in Linguistics), 1983; Burns, A., Joyce, H., & Gollin, S. *I see what you mean: Using spoken discourse in the classroom*. Sydney: National Center for English Language Teaching and Research, Macquarie University, 1996; Cook G. *Discourse*. Oxford: Oxford University Press, 1989; Coulthard, M. *Advances in Spoken Discourse Analysis*. London: Routledge, 1992. – 273 p.; Fairclough N. *Language and power*. London and New York: Longman, 1989. – 259 p.; Martin J. *Coherence in texture*. *The Handbook of Discourse Analysis*: Blackwell, 2001. 35-53 p.; Mc Carthy, M. *Discourse analysis for language teachers*. Cambridge: CUP, 1991; Vehek J. *On the problem of written language // Prague linguistic circle: collection of articles / comp., Ed. and foreword. N. A. Kondrashova*. –M.: Progress, 1967. 524-535 p.; Yan Wu. *Conversation Analysis – A Discourse Approach to Teaching Oral English Skills*. *International Education Studies*; Vol. 6, No. 5: Canadian Center of Science and Education, 2013. 87-91 p.; Harris Z. S. *Discourse Analysis // Language*. 1952. No. 8. 1-30 p.

³Арутюнова Н.Д. *Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н.Ярцева*. – М., 1990. – С. 136-137; Белозерова Н.Н. *Парадоксы дискурса [Электронный ресурс]*. URL: <http://frgf.utmn.ru/last/No13/text04.htm>; Григорьева В.С. *Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивные аспекты*. – Тамбов: Изд-во ТГТУ, 2007. – С. 288; Дейк Т. А. ван. *Язык. Познание. Коммуникация*. – М., 1989. – С. 308; Зотов А.Ф. *Современная западная философия*. Изд-е 2-е. – М.: Высшая школа, 2005. – С. 781; Карасик В.И. *О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр.* – Волгоград, 2000. – С. 5-20; Каримова Р.А. *Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов)*. – Уфа: Изд-во БашГУ, 1991. – С.156; Кибрик А.Е. *Моделирование языковой деятельности в интеллектуальных системах*. – М., 1987. – С.280; Красных В.В. *Основы психолингвистики и теории коммуникации: Курс лекций*. – М., 2001. – С. 270; Кубрякова Е.С. *О тексте и критериях его определения [Электронный ресурс]*. URL: <http://www.philology.ru/linguistics1/kubryakova-01.htm>; Макаров М.Л. *Основы теории дискурса*. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С. 280; Михалева О.Л. *Дискурс как объект исследований [Электронный ресурс]*: курс

O'zbek tilshunosligida ham ayrim yutuqlar qo'lga kiritilgan. Xususan, J.Sh.Safarov, L.R.Raupova, V.K.Sobirova, G.K.Odilovalar tilshunoslikda diskursiv tahlil borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar⁴.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Nazariy tilshunoslik natijalaridan amaliy tilshunoslikka" konsepsiyasi doirasidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida instruktiv diskursning turli diskurslarda shakllanishi, uni og'zaki va yozma nutqda namoyon bo'lish jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillarida instruktiv diskursning analitik sharhini taqdim etish, eng muhim jihatlarni realizatsiya qilish uchun diskurs orqali ko'rsatma beruvchi matnni tavsiflash imkoniyatini belgilash;

ingliz va o'zbek tillaridagi instruktiv diskursning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlarining keng doirasini yoritish;

ingliz va o'zbek tillarida ko'rsatmalarning diskursiv jarayonini tiklash algoritmini ishlab chiqish va instruktiv matn prototipini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillaridagi instruktiv diskurs va uning muhim tarkibiy qismlarini tavsiflash;

ingliz va o'zbek tillaridagi instruktiv diskursning og'zaki va yozma nutqda qo'llanishini ko'rsatib berish;

nutq ta'sirining potensialiga ega bo'lgan ko'p darajali lingvistik vositalar yordamida instruktiv diskurs ma'nolarini ifodalash xususiyatlarini tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida instruktiv diskursning izomorfik va allomorfik jihatlarini, morfologik, sintaktik va leksik-stilistik xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek og'zaki hamda yozma nutqda instruktiv diskurs tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek og'zaki hamda yozma nutqda instruktiv diskursning semantik-struktur va diskursiv xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsifiy, chog'ishtirma, kontekstual, lingvostatistik, komponent va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

лекций. URL: <http://rus-lang.isu.ru/education/discipline/philology/disrurs/material/13/>; Филипс Л.Дж., Йоргенсен М.В. Дискурс анализ. Теория и метод / пер. с англ. Изд-е 2-е, испр. Х.: Гуманитарный Центр, 2008. – С.624; Чернявская В. Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс. Проблемы экономического дискурса: сб. науч. тр. – СПб.: – С.-Петербург. гос. ун-т экономики и финансов, 2001. – С.11-22; Якобсон Р. Тексты, документы, исследования / отв. ред. Х. Баран, С. Гиндин. – М.: Рос. гос. гуманит. ун-т, 1999. – С.918; Кондрашкина Е.Ю. Прагмалингвистические характеристики русскоязычного инструктивного дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2018; Бурова Г.П. Фармацевтический дискурс как культурный код: семиотические, прагматические и концептуальные основания. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ставрополь, 2008.

⁴Сафаров Ж.Ш. Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав (на материале английского языка): Дисс. канд. филол. наук. – Самарканд: 2000. – С.175; Raupova L.R Dialogik diskursdagi porpredikativ birliklarning sosiopragmatik tadqiqi: Filol.fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2012. – B.220; Туманова А.Б. Языковая картина мира в художественном дискурсе писателя: Автореф. дисс. ... докт филол. наук. – Алматы, 2000. – С. 40; Собирова В.К. Литература кыргызского зарубежье как часть общего социально культурного контекста Кыргызстана (дискурсивно-концептуальный анализ): Автореф. дисс. ... докт филол. наук. Бишкек, 2013. – С. 50; Odilova G.K. Xususiy diskurslar lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti (glyuttonik diskurs misolida): Filol.fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2020. –B. 270.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz va o'zbek tillarida umumiy diskursivlik nazariyasining asosiy tushunchalari va atamaları asosida ID-instruktiv diskursning boshqa umume'tirof etilgan turlariga tobe bo'lmagan holda og'zaki va yozma-semiotik realizatsiyasining paralingvistik vositalarsiz, og'zaki ifodalangan, lingvistik va paralingvistik vositalardan hamda semiotik murakkab, ikonik komponentlardan tashkil topganlik kabi xususiyatlari ochib berilgan;

madaniyatning muayyan jihatini yo'riqnoma hamda ko'rsatma terminologiyasi – og'zaki-belgi birliklari to'plami orqali ifodalovchi ID terminologik kodining o'ziga xosligi, xususan, ingliz tilida texnik instruksiyalarda *It is + Adjective + Infinitive* modeli asosida shakllangan shaxsi noma'lum tavsifiy, subyektiv gaplar ishtiroki maqsadga muvofiqlik, zarurat, ratsionallik ma'nosini ifodalashi, *specifically, immediately, only, always* va *never* so'zlari kategoriallik va modallik ma'nosini kuchaytirishi; o'zbek tilida kesimning sodda, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi yoki holat ravishi bilan ifodalangan bitishuvli birikmada kelishi maxsus pragmatik vazifa bajarishi aniqlangan;

diskursning janriy xususiyatlari sifatida (1) informativ, imperativ, etiketga oid va subyektiv baho kabi to'rtta nutqiy janrni o'zaro zidlantiruvchi kommunikativ maqsad, (2) muallif obrazi, (3) adresat obrazi, (4) o'tgan muloqot qaratilgan voqea, unga xos javob, rad etish, qabul qilish, (5) muloqot epizodi sanalgan kelajak voqeasi, (6) voqelik mazmuni, (7) nutqiy janrning lisoniy tabiati; sotsiolingvistik tiplari sifatida institutsional, pedagogik, tibbiy, ilmiy, siyosiy, diniy, maishiy diskurs; pragmalingvistik tiplari sifatida yumoristik va ritual diskurslar ajratilgan;

ingliz va o'zbek tillari og'zaki hamda yozma nutqida instruktiv diskurs konseptual birligi muloqot sohasi, xronotop, ijtimoiy mavqe, muloqot ishtirokchisining ijtimoiy roli, intensiyasi, shakli, mavzusi, axborot kodi, muloqot yo'nalishi kabi lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda tilning kategorik apparatlariga kiritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o'quv yurtlarida umumiy, qiyosiy, ingliz va o'zbek tilshunosligi, tarjimashunoslik, kommunikativ lingvistika kabi fan yo'nalishlarida yaratilajak darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

ingliz va o'zbek og'zaki hamda yozma nutqida instruktiv diskursning nutqda qo'llanilishiga ko'ra faollik darajasi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida instruktiv diskursga oid muayyan ko'rsatmalar izohlandi, bu esa zamonaviy lingvistik ko'rsatmalar hamda yo'riqnomalar lug'atini tuzishda qo'l keladi, shuningdek, tarjima jarayonida instruktiv diskursni aniqlash orqali adekvatlikni ta'minlashga doir tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati instruktiv diskursning og'zaki hamda yozma nutq diskurslarda

ko‘rinishlari va lingvokulturologik, sotsiolingvistik va kommunikativ-pragmatik jihatlari, diskursni tadqiq etishga oid nazariy xulosalardan tilshunoslikning sotsiolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya yo‘nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishdagi ilmiy xulosalar va tahlillardan «Sotsiolingvistika», «Pragmalingvistika», «Leksikologiya», «Tarjima nazariyasi», «Stilistika», «Til aspektlari amaliyoti va diskursiv tahlil» fanlaridan darslik; o‘quv qo‘llanma yaratishda turizm va servis sohasida faoliyat yuritayotgan restoran va umumiy ovqatlanish korxonalari taomnomalarini yaratish, farmatsevtika sohasida dori vositalarining yo‘riqnomasi, maishiy xizmat jihozlarini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi, taom tayyorlash retsepti va yo‘riqnomasi, ilmiy matnlar ko‘rsatmalari, manzilga yo‘nalish berish ko‘rsatmalari va media matnlarda ifodalangan ko‘rsatmalarni tatbiq etishda lingvistik jihatdan amaliy yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi. Tarjimachilik sohasida, instruktiv leksikaga oid ikki tilli izohli lug‘atlarni yaratishda mazkur dissertatsiya metodik asos sifatida qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek og‘zaki hamda yozma nutqida instruktiv diskurs yuzasidan olingan natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida og‘zaki hamda yozma nutqida instruktiv diskurs konseptual birligi muloqot sohasi, xronotop, ijtimoiy mavqe, muloqot ishtirokchisining ijtimoiy roli, intensiyasi, shakli, mavzusi, axborot kodi, muloqot yo‘nalishi kabi lingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro bog‘liqligi yuzasidan qilingan xulosa va natijalaridan Andijon davlat universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan “IL-402104213 raqamli. O‘zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug‘at ishlab chiqish” davlat innovasion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 28-iyuldagi 39-01-1645-son ma'lumotnomasi). Natijada diskurs, matn, nutqiy ta'sir tavsifida qo‘llaniluvchi ayrim birliklarining o‘ziga xosliklari ochib berilgan;

mavhum instruksiyani ifodalovchi til birliklarining muloqotdagi o‘ziga xoslikni ta'minlashdagi o‘rni, ularning ta'rifi, instruktiv matnning grammatik, leksik va semantik, shuningdek, lingvostilistik imkoniyatlarining muloqot aktida lisoniy madaniyatni ta'minlashdagi vazifalari, diskursning janriy xususiyatlari sifatida (1) informativ, imperativ, etiketga oid va sub'ektiv baho kabi to‘rtta nutqiy janrni o‘zaro zidlantiruvchi kommunikativ maqsad, (2) muallif obrazi, (3) adresat obrazi, (4) o‘tgan muloqot qaratilgan voqea, unga xos javob, rad etish, qabul qilish, (5) muloqot epizodi sanalgan kelajak voqeasi, (6) voqelik mazmuni, (7) nutqiy janrning lisoniy xususiyati bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan “OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish” davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 28-iyuldagi 39-01-1645-son ma'lumotnomasi). Natijada lisoniy madaniyatni ta'minlashga oid metodologiya nutq janrlariga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida umumiy diskursivlik nazariyasining asosiy tushunchalari va atamalari haqidagi dissertatsiya natijalari va materiallaridan

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DUK “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta'lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” nomli eshittirishlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DUKning 2023-yil 3-iyuldagi 04-36-1027-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda instruktiv diskursning og‘zaki hamda yozma nutq diskurslarda ko‘rinishlari va lingvokulturologik, sociolingvistik va kommunikativ-pragmatik jihatlari, diskursni tadqiq etishga oid nazariy xulosalardan tilshunoslikning sociolingvistika, pragmalinvistika, lingvokulturologiya yo‘nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanishga va tarjimachilik sohasida, instruktiv leksikaga oid ikki tilli izohli lug‘atlarni yaratishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 2 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat bo‘lib, asosiy qismi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **I bobi “Tilshunoslikda diskurs masalasi”** deb nomlangan. Bobning dastlabki bo‘limi “*Zamonaviy til nazariyasida «diskurs» tushunchasi va unga ilmiy yondashuvlar*” deb ataladi.

Diskurs (qadimgi lotin tili. discursus – mulohaza, bahs; asli – aylanib yurish, shov-shuv, manyovr) – polisemantik atama bo‘lib, umumiy ma’noda nutq, lisoniy jarayonlar, ularning olam lisoniy manzarasi bilan munosabatini bildiradi.

Diskurs – bu ma‘lum bir ijtimoiy-madaniy an‘anada ratsionallikning hukmron turi bilan tartibga solinadigan inson ongi mazmunini obyektivlashtirishning og‘zaki ifodalangan shakli. Hozirgi vaqtda diskurs falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarda faol qo‘llaniladigan polisemantik tushunchadir .

Ye.Isayevaning aytishicha, lingvistik nuqtayi nazaridan diskurs – yozma nutqdan farq qiluvchi jonli muloqot jarayoni. Shu sababli u spontan, tugallangan,

mavzuga bevosita bog‘liq, tinglovchi uchun tushunarli bo‘ladi. Struktur xususiyatlari bilan birga diskurs janriy o‘ziga xoslikka ham ega. Shu bilan birga jiddiylik / nojiddiylik, rituallik va vaziyatdan chiqish, munozara, muloqot distansiyasini oshirish va qisqartirish kabi belgilari ham mavjud⁵.



Funksional diskurs tildan istalgan foydalanish holati bo‘lib, tilning umumiy tahlili deb qaraladi. *Situativ diskurs* ijtimoiy, psixologik va madaniy ahamiyatli sharoit va vaziyat konteksti bilan bog‘liq. Ushbu yondashuvga formal va funksional

⁵ Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике // <http://vii.sfu-ras.ru/info/public/vii/book/ponyatie-diskursa-v-sovremennoy-lingvistike-2009> (дата обращения : 26.04.2023)

diskurs xususiyatlarini qamrab olgan diskurs sifatida ham qaraladi. *Kognitiv* yondashuvda diskurs bilimni ifodalashda yangi muloqot shaklini hosil qiluvchi kognitiv fenomen sifatida qaraladi. Shunday qilib, tilshunoslar diskursni turli aspektda o'rganishadi, bu esa diskurs nazariyasini to'laqonli rivojlantirish, mukammallashtirishga yo'l ochadi.

Bobning ikkinchi bo'limi “Diskurs – kommunikatsiya jarayoni elementi sifatida: pragmatik va kognitiv sohalarida” deb nomlangan.

Diskurs kommunikativ hodisa sifatida verbal muloqot faoliyati hamda muloqot jarayonida qayd etilgan muayyan matn o'rtasidagi oraliq bo'g'indir. Soddaroq aytganda diskurs original nutqni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan kognitiv jarayon, u nutq haqidagi tasavvurlar va matnning nutq sifatida shakllanish jarayonining yakuniy natijasi sifatida tushunilishi lozim. G.Vidousen matn va diskurs tushunchalarini farqlash uchun mazkur juftlik orasiga “sharoit/vaziyat” kategoriyasini kiritadi. Shunday qilib, u diskursga “matn” + “sharoit/vaziyat” formulasi natijasi deb qaraydi. “Diskurs” tushunchasi fanda matnni faqat matn sifatida emas, balki kimgadir qaratilgan, adresat va muallifning biror ehtiyojiga ko'ra paydo bo'lgan murojaat sifatida qarashdan paydo bo'lgan.

Diskursning lingvo-kommunikativ aspekti G.A.Orlov talqinida (tabiiy) nutqning kategoriyasi sifatida baholanadi. Uning fikricha, diskurs yozma yoki og'zaki shaklda hosil qilingan nutqiy mahsulot, nisbatan tugallangan va o'ziga xos tuzilishga ega. Uning uzunligi, davomiyligi potensial nuqtayi nazardan turli xil: sintagmatik zanjirlardan tuzilgan gaplardan boshlab mazmuniy qurilishga ega asar (hikoyalar, suhbatlar, tavsiflar, ko'rsatmalar, ma'ruzalar va boshqalar)dan iborat bo'ladi⁶.

Instruktiv diskurs matnlari kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan operativ xotiraning asosiy birligi bo'lgan konsept tushunchasi bilan bog'liq ravishda o'rganiladi. Bunda u kognitiv jarayon / faoliyatning asosiy birligi sifatida qaraladi.

Ye.V.Astaxova ingliz tili materiallari asosida instruktiv matnlarni “Instruction” konseptining yuzaga chiqishi sifatida baholaydi. Bu ham instruksiya berishga mo'ljallangan / qaratilgan diskursiv faoliyatning o'ziga xosligini ko'rsatishga yordam beradi. Konseptning asosiy tushunchasini nimani qanday bajarish xususidagi ko'rsatmadan tashkil topgan axborot bilan ta'minlash haqidagi situativ tasavvur tashkil etadi. Bu o'rinda vaziyat deganda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini tushunish mumkin. Yo'riqnomaning konseptual maydonini tahlil qilish tadqiqotchiga turli vaziyatlarni tavsiflovchi o'zgaruvchan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan konsept strukturasi freym modelini ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu model o'z tarkibiga vaziyat ishtirokchilari, adresatga uzatiladigan, maxsus bilimlar talab qilinuvchi obyekt, qo'llanish sohasi, instruktiv axborotni uzatish kanali, axborot uzatish usuli, matnning kognitiv belgilari, kutiladigan reaksiya kabi elementlarni qamrab oladi. Instruktiv matnlar alohida bir janrdir. Bu bizga instruktiv matnlarning pragmatik potensialini yanada ko'proq izohlashga imkon yaratadi. Chunki u faqat konkret vaziyatni izohlab kelmaydi, balki pragmatik omillar ta'sir etuvchi yo'riqnoma berish xususiyatini aks ettiradi. Shu sababli qo'yilgan

⁶ Орлов Г.А. Современная английская речь. – М.: Высш. шк., 1991. – С. 14.

maqsad va vazifalarga muvofiq nisbatan adekvat yondashuv pragmalingsvistik yondashuvdir⁷.

Demak, diskurs muloqot (kommunikatsiya) jarayonini aks ettiruvchi vosita bo‘lib, u pragmalingsvistik hodisa sifatida baholanishga loyiq. Kognitiv jarayon sifatida baholashga esa uning ma‘lum bir konseptni ta‘riflashga qaratilgan matnlar yig‘indisi ekanligi asos bo‘la oladi.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi “Diskurs turlari va tipologiyasi: og‘zaki va yozma nutq” deb atalgan.

Diskursning og‘zaki va yozma turlari farqlanadi. Diskursning asosiy ko‘rinishi sifatida monologik va dialogik nutq ajratiladi. Ammo bunday tasnifda ko‘rinish hajmini farqlash muammosi paydo bo‘ladi. Adresant va adresat o‘rtasidagi kichik replikalar doirasida o‘zaro dialogik muloqot muhim. Kommunikant tomonidan aytilgan o‘zaro bir mazmun ostida birikkan gaplar ketma-ketligi monolog sifatida qaraladi. Kommunikativ voqea sifatida hosil bo‘lgan fikrlar munozarasi yoki debat, dialogik va monologik diskursni farqlashni qiyinlashtiradi. Yozma va og‘zaki kabi tiplaridan va monologik hamda dialogik ko‘rinishlaridan tashqari diskursning xususiy tiplari hamda diskursiv aloqaga oid ko‘rinishlari ajratiladi⁸.

Diskursning turlarini ko‘rib o‘tamiz. Istalgan bir tabiiy fenomenni o‘rganish kabi diskursni o‘rganish jarayonida tasnif va qiyoslash muammosi tug‘iladi. V.I.Karasik o‘z tadqiqotlarida diskursning quyidagi ko‘rinishlarini farqlaydi⁹: *Diskursning sotsiolingsvistik tiplari*: institutsional, pedagogik, tibbiy, ilmiy, siyosiy, diniy, maishiy diskurs. *Diskursning pragmalingsvistik tiplari*: yumoristik, ritual diskurs.

Birinchi bobning to‘rtinchi bo‘limi “Instruktiv diskurs” tushunchasi va uning metodologiyasi” deb nomlanadi.

Matnga sistem-struktur yondashuv matn elementlari orasidagi sintaktik aloqalarni mikro va makro darajadagi munosabatlar sifatida qarash natijasida matn yoki matn ko‘rinishidagi yangi ijod namunasi majmuyi yaxlitligi sifatida qaralsa, matnni anglashga lingvomadaniy yondashuv esa olam lisoniy manzarasida madaniy tasavvurlarni aks ettirish shakli sifatida qaraladi¹⁰.

Dissertatsiyaning II bobi “Ingliz va o‘zbek tillarida instruktiv diskurs turlari va ularning kommunikativ-pragmatik jihatlari” deb nomlangan. Birinchi bo‘limda *dori vositalarini farmatsevtika nutqi janrlari sifatida qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi: leksik-terminologik va kompozitsion-kommunikativ xususiyatlar* tadqiq etilgan.

Instruktiv matn – diskursning alohida ko‘rinishi. O.V.Xoroxordina “Инструкция как тип текста”¹¹ nomli maqolasida instruksiyani alohida janr deb qaraydi. Mazkur janr bir necha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, mazmuniy asos, instruksiyada fikrni ifodalash / berish usuli, nutqiy realizatsiya

⁷ Кондрашкина Е.Ю. Прагмалингвистические характеристики русскоязычного инструктивного дискурса: автореферат диссер. канд. филол. наук. – Саранск, 2018. – 197 с. – С. 21.

⁸ https://bstudy.net/847089/sotsiologiya/typy_vidy_diskursa (murojaat sanasi:20.01.2023)

⁹ Карасик В.И. О типах дискурса [Текст] / В.И.Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. работ. – Волгоград, 2000. – 56 с.

¹⁰ Ko‘rsatilgan manba. – 10 b.

¹¹ Хорехордина О.В. Инструкция как тип текста / Мир русского слово. – № 4 / 2013. – С. 7-14.

natijasi bilan ajralib turadi. Dori vositalarini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomalarning lisoniy xususiyatlari o‘rganilgan ishlar ko‘p. L.N.Nosova fransuz tilida farmatsevtik diskursni tadqiq etgan¹².

Farmatsevtik diskurs tibbiyotga oid diskursning bir ko‘rinishi bo‘lib, maxsus tayyorgarlik, ma‘lum malakaga ega mutaxassislar (shifokor / farmatsevt) hamda iste‘molchi (tibbiy bilimga ega bemor) yoki bu sohadan umuman xabardor bo‘lmagan kishilar o‘rtasida bevosita va bilvosita muloqotni tashkil etuvchi diskursdir. L.N.Nosovanning fikricha, farmatsevtik diskurs adresatga ma‘lum bo‘lmagan axborotni ulashadi, bu esa dori vositasi haqida tasavvur hosil qilishga, bilim shakllantirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, adresatga allaqachon ma‘lum bo‘lgan narsalar haqida ma‘lumot berishi ham mumkin. Bu ko‘pincha, ushbu matnlar mutaxassislar tomonidan o‘qilganda sodir bo‘ladigan holatdir¹³. Og‘zaki farmatsevtik diskurs esa nutq axboroti bilan birga paralingvistik vositalarni ham qamrab oladi. Ritmik, referentiv, semantik (mimika, ma‘no anglatuvchi imo-ishoralar), hissiy-bo‘yoqdorlik, suhbatdoshga ta‘sir etish vazifasi, illokutiv kuch (imo-ishora, undash, ishontirish) kabilar shular jumlasidan¹⁴. Paralingvistik vositalar orqali ta‘sir etishda yo‘riqnoma matni emas, odatda, shifokor tomonidan amalga oshiriladi.

Ingliz tilida ham tibbiy yo‘riqnoma yozish talablari ishlab chiqilgan. Talabga ko‘ra, ingliz tilidagi tibbiy yo‘riqnomalarda mavjud bo‘lishi talab qilinadigan axborot minimumi standart sifatida qabul qilingan. Manbalarda quyidagicha ko‘rsatiladi¹⁵:

Minimum Content of Instructions for Use under the MDR

In accordance with the MDR, instructions for use for medical devices must contain certain key information. Aside from information about the product (name/trademark, product ID) and the manufacturer (name, address, contact information), information about the following is also required: intended purpose; indications and contra-indications; patient target group and intended users; specification of the clinical benefit to be expected; availability of the summary of safety and clinical performance (high-risk devices); the device’s performance characteristics; specifications which are required for appropriate use of the device; sterilization, final assembly, calibration, cleaning and disinfection; necessary qualifications for users; any reconditioning procedures; storage, transport, durability; combination with other devices, including accessories; maintenance and repair; symbols and identification colors¹⁶. Ko‘rinadiki, ingliz tilidagi dori

¹² Носова Л.Н. Коммуникативно-прагматический потенциал инструкции по применению лекарственных средств в фармацевтическом дискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2013. – 20 с.

¹³ Носова Л.Н. Особенности адресации в письменном фармацевтическом дискурсе / Л.Н.Носова // Историческая и социально-образовательная мысль. – 2013. – № 3. – С. 158–160.

¹⁴ Хасанова Д.М. Дискурс и текст в современной лингвистике //

https://upload.pgu.ru/iblock/61a/uch_2008_ii_00059.pdf

¹⁵ <https://www.reuschlaw.de/en/news/mdr-requirements-for-instructions-for-use-for-medical-devices/#:~:text=Definition%20of%20%E2%80%9CInstructions%20for%20Use.any%20precautions%20to%20be%20taken.> (murojaat sanasi: 26.04.2023)

¹⁶ <https://www.reuschlaw.de/en/news/mdr-requirements-for-instructions-for-use-for-medical-devices/#:~:text=Definition%20of%20%E2%80%9CInstructions%20for%20Use.any%20precautions%20to%20be%20taken.> (murojaat sanasi: 26.04.2023)

vositalarini qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar tarkibi bilan farq qilmaydi, ammo ularning ifoda usulida farq kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, ingliz tilida yo'riqnoma berish usulida ayrim farqlar kuzatiladi. Bu ingliz tilida instruktiv diskursning o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Ingliz tilidagi instruksiyalarda *must*, *should*, *can* kabi modal modifikatorlarni qo'llash holati ko'p kuzatiladi. *Must* modal fe'li harakat kauzatsiyani ifodalashda nisbatan avtoritar bo'yoqqa ega bo'lsa, *should* fe'li preskriptorning subyektiv fikrini ifodalashga xizmat qiladi, bu bilan u direktiv nutq aktining kategorik xususiyatini pasaytiradi. *Can* modal fe'li nokategoriallikni ta'minlaydi, can harakatni amalga oshirishga imkoniyat mavjudligini bildiradi. Ingliz tilida o'yinlarni bajarish yo'riqnomalarida *may* modal fe'li adresatga ma'lum bir harakatni amalga oshirishga ruxsat borligini bildiradi, shuningdek, qoidalarga to'liq amal qilishga ishora bo'ladi. Ingliz tilida texnik instruksiyalarda ko'pincha, quyidagi model asosida shakllangan shaxsi noma'lum tavsifiy, subyektiv gaplar ishtirok etadi: *It is + Adjective + Infinitive*.

Bunda maqsadga muvofiqlik, zarurat, ratsionallik ma'nosini ifodalovchi leksemalar baholovchi predikat vazifasini bajaradi: *It is wise to do X; It is necessary to do X*. Instruksiyalarda modallik ma'nosi *specifically, immediately, only* so'zlari yordamida yuzaga chiqadi. Ingliz tilida qo'llash bo'yicha yo'riqnomalarda *always* va *never* so'zlari keng qo'llaniladi. Bu so'zlar kategoriallik va modallik ma'nosini kuchaytiradi: *Always discard batteries safely*. Bu kabi instruksiyalarning xususiy unsuri sifatida holat ravishi bilan qo'llanish modeli sanaladi: *when (while, whilst) + Participle I*. Masalan: *When inhaling you should sit upright and relaxed*.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limida maishiy xizmat jihozlarini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma va interpretatsiya jarayonlari tahlilga tortilgan. Maishiy xizmat jihozlarining tahlil qilingan / o'rganilgan instruktiv matnlari (matn fragmetnlari) turli mazmun-mundariyasi hamda uslubiy o'ziga xoslikka ega bo'lishidan qat'i nazar umumlashtirib turuvchi belgilarga ega: 1. Tipik intensiya – biror bir holatda qanday harakatlanish (nima qilish / nimadan tiyilish) o'rgatiladi. 2. Tipik mundarija va uning kompozitsiyasi. Har bir yo'riqnoma mazmuni va kompozitsiyasining to'liqligi / noto'liqligiga ko'ra o'ziga xosligi bilan ajralib tursada, turg'unlik va dinamiklik freymlari munosabati bir xil emas. Turg'un freymda ularning har biri bilan bog'liq bo'lgan harakat hamda agent, obyekt, predmet va adresatlar to'plami mavjud. 3. Adresat javob reaksiyasi tipik yakunlanganligi, natijada, yo'riqnoma ko'rsatilgan harakat amalga oshirilishi talab qilinadi. 4. Tipik lisoniy ifoda vositalarini qo'llash¹⁷.

Tadqiq obyektini sifatida bir necha maishiy texnika buyumlarini qo'llash yo'riqnomalari tanlandi: “Sokany” dazmoli, “INDESIT” muzlatkichi, “SUMSUNG” televizorini ishlatish yo'riqnomalari. Mazkur yo'riqnomalarning biri bir tilli (ingliz tili), boshqalari ikki (rus va ingliz) va ko'p tilli (rus, o'zbek, qozoq) ekanligi bilan farqlanadi. Maishiy texnika buyumlari instruksiyasi farmatsevtik instruksiyadan tuzilishi, mazmuni va taqdim qilish shakli bilan farq qiladi. Dori

¹⁷ Хорохордина О.В. Инструкция как тип текста / Мир русского слово. – № 4 / 2013. – С. 7-14.

vositalari yo‘riqnomasi dori o‘ramlarining ichida bir varaqning oldi va orqasida ikki tilda yozilgan (A4 yoki undan kichik formatda kichik shriftda yozilgan bo‘ladi) bo‘lsa, maishiy texnika buyumlari yo‘riqnomalari buklet yoki kattaroq kitobcha shaklida bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi bu tipdagi yo‘riqnomalarda gapning kesimi 2-shaxsga qaratilgan bo‘lib, buyruq maylida shakllantiriladi: *Sovitkich bino ichida foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Har qanday sharoitda ham sovitkichni ko‘chada, garajda va hokazo joyda **ishlatmang**. Himoya qo‘lqoplaridan **foydalaning!*** Maishiy texnika jihozlari foydalanuvchisi yosh chegarasi keng bo‘lganligi sababli bunday yo‘riqnomalarda shaxsi umumlashgan gaplardan foydalaniladi: *Bolalarning uskuna bilan o‘ynashlariga **yo‘l qo‘ymaslik kerak***. Harakat nomi + kerak/lozim konstruksiyali egasi ma‘lum gaplar ham ko‘p qo‘llanadi: *Kabel faqat malakali mutaxassis tomonidan **almashtirilishi kerak***. Yo‘riqnomada xavfsizlik qoidalarini, ogohlantirishni bildirgan o‘rinlarda inson diqqatini tortuvchi so‘zlar qo‘llaniladi: **DIQQAT!** *Uskuna korpusidagi yoki joylashtiriluvchi konstruksiyadagi ventillyatsiya teshiklarini to‘sisib qo‘ymang!* Maishiy texnika buyumidan foydalanish yoki o‘rnatish bilan bog‘liq harakatlarda bajarilishi tavsiya etilmaydigan yoki taqiqlashni bildiruvchi konstruksiyalardan foydalaniladi: *Uskuna orqasida havo aylanishini **cheklab qo‘ymang!*** Muammoning yechimi esa holatni izohlash ma‘nosidagi fe‘l-kesimli yoki holatni bildiruvchi ot-kesimli sodda gap bilan berilgan: *Bo‘linmalar mahsulot bilan **to‘la**. Mahsulotlar sovitkich orqa devoriga tegmasligi kerak, u juda ham **sovuq**. Hona harorati haddan tashqari **yuqori**.*

Agar bo‘lsa, ... konstruksiyasi maishiy texnika vositasi bilan bog‘liq nosozlik holati yechimini ifodalashda ko‘p qo‘llaniladi: ***If possible, preserve the appliance’s original packaging during the warranty period so that, in the event of a warranty claim, you can package the appliance appropriately for its return.*** Dori vositalarini qo‘llash yo‘riqnomalarida bo‘lganidek, maishiy texnika vositalarini ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmada ham *always, never* so‘zlari ko‘p uchraydi. Bu so‘zlar qilinishi talab etilgan harakatga urg‘u berishga xizmat qiladi: ***Never leave the steam iron unattended when it is connected to the mains power supply.***

Ingliz tilidagi yo‘riqnomada taqiq ma‘nosi ko‘pincha don’t + verb konstruksiyasi bilan ifodalanadi: ***Do not use extension cables. Do not expose the appliance to humidity and do not use it outdoors.*** Bu ma‘noni ifodalashda ba‘zi hollarda may + not shakli ishlatiladi: ***You may not open the appliance housing of the steam iron.***

Bobning uchinchi bo‘limi “Taom tayyorlash retsepti va yo‘riqnomasining semantik xususiyatlari” deb atalgan. Lingvistikada taom bilan bog‘liq lisoniy tushunchalar tadqiqi “glyuttonik diskurs tahlili” deyiladi¹⁸. O‘zbek tili taom tayyorlash retseptini ikki: og‘zaki va yozma diskurs aspektida tadqiq etdik, obyekt sifatida kitob va internet saytlarida mavjud retsept matnlarini tanladik. Taom retsepti matni, asosan, ikki qismdan iborat: taom tayyorlash yo‘riqnomasi – pishirish

¹⁸ Odilova G.K. Ko‘rsatilgan manba. – 30-b.

(tayyorlash) ketma-ketligi va masalliqalar ro'yxati. Ayrim retseptlar tarkibida taomning umumiy tavsif qismi ham uchraydi.

Maishiy texnika jihozlari isruksiyalarida ko'pincha II shaxs buyruq maylidagi yoki shaxsi umumlashgan yoxud harakat nomi + kerak qolipli kesimlar ko'pligi kuzatilgandi. Taom tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma matnlarida taomni tayyorlash ketma-ketligi aniq aks etishi ham diqqatga sazovor. Tayyorlash bosqichi 1-qadam, 2-qadam, 3-qadam, 4-qadam deb ajratib ko'rsatiladi. Dori vositalarini qo'llash yoki maishiy texnika vositalaridan foydalanish isruksiyalarida qo'llash izchilligi (taom tayyorlash isruksiyasi matnidan farqli ravishda) bu darajada aniq berilmaydi.

O'zbek tilida taom tayyorlashga oid isruktiv matnlarning leksikasi (xususan, fe'l turkumiga oid so'zlar) o'ziga xos. Ularda *qovurmoq, solmoq, aralashtirmoq, terib chiqmoq, sepmoq, pishirmoq, dimlamoq, qaynatmoq, yoymoq, bukmoq, tugmoq* kabi leksemalar faol ishtirok etadi.

Ingliz tilida taom tayyorlash yo'riqnomasi o'zbek tilidagi bunday matnlardan sarlavhasidan boshlab farq qiladi. O'zbek tilida faqat taom nomi yozilsa (ko'k somsa, varaqi somsa, qovoq somsa, manti, qovurdoq va h.k.), ingliz tilidagi retseptlar sarlavhasi gap yoki so'z birikmasi sifatida bo'ladi. Masalan: *“how to cook pasta”, “how to cook pasta perfectly”, “cooking pasta for warm sauce”, “cooking pasta for salads”*¹⁹.

Ingliz tilida taom tayyorlash bo'yicha isruksiyalar sarlavhasi *“how to cook +”* yoki *“cooking +”* so'zlari birikmasi bilan shakllanadi. Ingliz tilida taom tayyorlash yo'riqnomasi matnida (boshqa isruktiv matnlarda bo'lgani kabi) *should be* konstruksiyasidan foydalaniladi. Ingliz tili isruksiyalarida bajarilishi talab etiladigan ishlar ketma-ketligi tuzilishiga ko'ra sodda buyruq gaplar bilan ifodalanadi, gapning egasi yashiringan bo'ladi. Taom tayyorlash jarayonida bajarish mumkin bo'lmagan, man etilgan holatlar *do not* fe'li bilan boshlanuvchi bo'lishsiz gap bilan beriladi.

Dissertatsiyaning III bobi “Ingliz va o'zbek tillarida publitsistik isruktiv matnlar tarjimasi muammolari” deb nomlangan. Dastlabki bo'lim *“Ingliz va o'zbek tillarida jamoat transtporti (metro, samolyot, avtobus)dan foydalanish yo'riqnomasining o'ziga xos xususiyatlari va ularning tarjimasi”* deb nomlangan.

An'anaviy isruktiv matnlarga nisbatan zamonaviy isruksiyalar tarkibida isruktiv xarakterli qo'shimcha matnlar mavjud. Masalan, foydalanish bo'yicha yo'riqnoma, eslatma, uskuna ustidagi yozuv va sxemalar shular jumlasidan. Shuningdek, keyingi vaqtlarda isruktiv matnlarni audio/video isruksiya, interaktiv isruksiya, tasviriy oyna (ekran)larda aks etuvchi maslahat, gipermatnli bilimlar bazasi, gipermatnli onlayn resurs, elektron hujjat kabi turli shakllari urfga kirdi.

Isruktiv diskurs ko'proq ommaga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Bu haqda oldingi bobda to'xtalganimiz uchun bu o'rinda bu xususiyatini takrorlashga ehtiyoj sezilmaydi. Yo'riqnoma berish xususiyatiga ega og'zaki va yozma matnlar – isruktiv diskurs jamoat transportida ko'p uchraydi. Chunki bunday aloqa-transport

¹⁹ <https://feelgoodfoodie.net/recipe/how-to-cook-pasta/> (murojaat sanasi : 20.01.2023)

vositalaridan aholining ko‘p qismi foydalanadi. Shuningdek, jamoat transportida xavfsizlik yoki odob-axloq qoidalari bilan bog‘liq instruksiyalarning bo‘lmasligi bu kabi joylarda tartibsizlikni keltirib chiqaradi, ulardan foydalanishda ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yiladi, ozodalikka putur yetadi.

a) majhul nisbat: *150 dan 220 sm gacha bo‘lgan uzunlikdagi yuklarni tashish uchun to‘lanadi*; b) II shaxs buyruq mayli: *poyezd to‘xtaganda, yo‘lovchilarning erkin chiqib ketishi uchun vagonlar eshigiga joy oching*; d) harakat nomi: *oxirgi stansiyalarda vagonlarni bo‘shatish*.

Metrodan foydalanish bo‘yicha o‘zbek tilidagi yo‘riqnomada jamoat joylarida tartibni saqlash qoidalariga amal qilish; odatdagi xavfsizlik qoidalariga amal qilish; favqulodda holatdagi xavfsizlik qoidalariga amal qilish kabi axborotlar berilgan:

Metrodan foydalanish bo‘yicha ingliz tilidagi yo‘riqnoma matnlarini²⁰ tahlil qilganimizda ko‘rinadiki, yo‘riqnoma matni – instruktiv diskurs metrodan foydalanish bo‘yicha tavsif va ko‘rsatmadan tashkil topgan (Qarang: 3.3-ilova). *“Keep a map of the Tube on hand”, “Find your departure and arrival stations on the map”* kabi konstruksiyalar tavsiflash, axborot berish vazifasini bajaradi. Sodir bo‘lishi mumkin holatlardan ogohlantirish mazmunidagi gaplar *If* konstruksiyali gaplar bilan ifodalanadi: *If you’re unfamiliar with the Tube, a map is essential. If you’d like to learn more about Travelcards, visit*. Ruxsat etilgan ishlar “mumkin”, “bajara olasiz”, “qilishingiz mumkin” mazmunini ifoda etuvchi konstruksiya – *You can + verb* bilan beriladi: *You can pick up a free map at Heathrow Airport or from any Tube station, from a London Underground Information centre. You can also use a smartphone app, like Tube Map by Mapway, to figure out the best route*²¹.

Ingliz tilida metrodan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarning umumiy belgilari sifatida matnda foydalanish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsifning mavjudligi, bajarilishi mumkin, shart bo‘lgan holatlarga urg‘u berilishi, gapning tipik sintaktik qurilishi mavjudligini ta’kidlash lozim.

Metroda *“eshiklarga suyanmang”* degan yozuv yonida eshikka suyanib turgan kishi silueti ustidan chiziq tortib qo‘yilgan piktogrammani ko‘ramiz. Yoki nogironligi bor shaxslar yoki homilador ayollarga mo‘ljallangan o‘rindiqlarda *“nogiron shaxslar yoki homilador ayollar o‘rni”* degan instruktiv matn bilan birga nogironlik aravachasi piktogrammasi, bola yetaklagan ayol rasmi ko‘rsatilgan holatlar ko‘p uchraydi.

Bunday noverbal unsurlar samolyot parvoz xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo‘yicha video yo‘riqnomasida yana ham aniqroq yuzaga chiqqan. Masalan, video yo‘riqnomada quyidagi ko‘rsatma beriladi: *Samolyotning old, o‘rta va dum qismiga*



Video-instruksiyadagi noverbal ifoda vositasi ko‘rinishi

²⁰ <https://www.wikihow.life/Use-the-London-Underground> (murojaat sanasi: 20.01.2023)

²¹ <https://www.wikihow.life/Use-the-London-Underground> (murojaat sanasi: 20.01.2023)

joylashgan 8 ta avariya chiqish yo'llari havoga to'ldiriladigan traplar bilan ta'minlangan.

Bu fikrdan keyin boshqa holat (tamaki mahsulotlari iste'moli) haqida fikr yuritiladi. Ammo yo'riqnomani tomosha qilayotgan yo'lovchida tushunmovchilik kelib chiqmaydi, mazkur instruktiv videodagi shu diskursiv vaziyatni ifodalovchi havoga to'ldirilgan traplari ochilayotgan samolyot ko'rsatilgan lavha ko'rinadi (yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan) hamda samolyot suvga qo'nganda xavfsizlik traplari qanday ochilishi haqida aniq tasavvur paydo bo'ladi. Bu ham noverbal unsur sifatida instruksiyadagi informativlikni ta'minlaydi.

